

## INKLYUZIV TA'LIMDA INGLIZ TILINI O'QITISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA INNOVATSIYALAR

*Safarova Z. G.*

*mustaqil tadqiqotchi*

*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar usullarni qo'llash natijasida, o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanishi, nutqi ravonlashishi, tez va to'g'ri javob berish malakasi shakllanishi, bilimga ishtiyoq uyg'otishi, darslarga puxta hozirlik ko'rishga intilishi haqida ma'lumotlar berilgan.

Bu orqali ta'limning innovatsion texnologiyalaridan foydalanishga imkoniyat tug'iladi va talab ortadi. Hozirgi kunda o'sib kelayotgan yosh avlodni chet tillariga o'qitish sifatini ta'minlash, chet tillarida erkin so'zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish, chet tillarni o'zlashtirish orqali jahon ta'lim standartlariga javob beradigan yetuk kadrlarni tayyorlash yurtimizda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotining maqsadlaridan biridir.

**Kalit so'zlar:** zamonaviy, innovatsiya, boshlang'ich, o'yin, ta'limiy, ta'lim

**Abstract.** This article presents modern approaches and innovations in teaching English in elementary grades as a result of the application of methods, students develop logical thinking skills, improve speech, form the skill of a quick and correct answer, awaken a passion for knowledge, a desire for thorough preparation for lessons.

This gives access to innovative learning technologies and increases demand. Currently, ensuring the quality of teaching foreign languages to the younger generation, radically improving the system of training specialists who are fluent in foreign languages, training mature personnel who meet international educational standards by mastering foreign languages is one of the goals of the educational reform being carried out in the country.

**Keywords:** modern, innovative, startup, gaming, educational, education

**Аннотация.** В данной статье представлены современные подходы и инновации в обучении английскому языку в начальных классах в результате применения методик у учащихся развиваются навыки логического мышления, совершенствуется речь, формируется навык быстрого и правильного ответа, пробуждается страсть к знаниям, стремление к тщательной подготовке к урокам.

Благодаря этому появляется доступ к инновационным технологиям обучения и повышается спрос. В настоящее время обеспечение качества обучения подрастающего поколения иностранным языкам, коренное совершенствование системы подготовки специалистов, свободно владеющих иностранными языками, подготовка зрелых кадров, соответствующих мировым образовательным стандартам, посредством овладения

иностранными языками, является одной из целей проводимой в стране образовательной реформы.

**Ключевые слова:** современный, инновационный, стартап, игровой, образовательный, образование

Hozirgi kunda o'sib kelayotgan yosh avlodni chet tillariga o'qitish sifatini ta'minlash, chet tillarida erkin so'zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish, chet tillarni o'zlashtirish orqali jahon ta'lim standartlariga javob beradigan yetuk kadrlarni tayyorlash yurtimizda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotining maqsadlaridan biridir. Til o'rgatishdagi imkoniyatlarni aniqlash va ularni yuzaga chiqarishda o'qituvchining bilimi, ijodkorligi, talabalarni o'z faniga nisbatan muhabbatini uyg'ota olishi, talaba bilan hamkorlik munosabatini o'rnatish hozirgi davr talabini taqozo etadi. Chet tillarini o'rgatishni yanada rivojlantirish, xalqaro standartlarga muvofiq umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar, oliy ta'lim muassasalari uchun chet tillarini yuqori darajada egallagan malakali o'qituvchilarni tayyorlash darajasi va sifatini yuksaltirish chora-tadbirlarini amalga oshirishni ta'minlash maqsadida ko'plab ishlar amalga oshirilmogda. Shu bilan birga aytish joizki, har bir o'rganilayotgan tilning o'ziga xos qonun-qoidalari, sir-sinoatlari mavjud. Xalqaro standartlarga javob beruvchi yetuk mutaxassis kadr bo'lish uchun o'rganuvchidan tilning eng nozik qatlamlarini nazardan qoldirmaslik talab etiladi.

Dunyo aholisining ko'pchiligi ikki va undan ortiq tilda gaplasha oladi. Albatta, bu tillarning dastlabkisi o'zining ona tilisi bo'lib, ko'pchilik tilshunoslar nafaqat o'rganilayotgan chet tilini, balki ona tilini o'zlashtirish uchun ham alohida sharoit yaratilishi kerak deb hisoblaydilar. Ta'kidlab o'tish joizki, xorijiy tillarni o'rganish borasida qilinayotgan islohotlar natijasida o'sib kelayotgan yangi avlod maktabgacha ta'lim muassasasidan tortib oliy ta'lim muassasasigacha ona tili va chet tilini bir paytning o'zida taqqoslab o'rganadilar.

Respublikamizda chet tilining o'qitilishi, chet tili o'qituvchilarining bilim va ko'nikmalarini baholashning umumevropa ramkalari tavsiyanomalari (CEFR) ga mos ravishda yangi usul va talablari ishlab chiqildi. Unga ko'ra umumta'lim maktablari va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun darsliklar yaratildi. Ushbu talablarga mos ravishda o'quv xonalari stendlar va yangi axborot kommunikativ texnikalar bilan jihozlandi. Chet tili o'rganishga bo'lgan talab ham kundan kunga oshib bormogda. Chet tili fani to'rt aspectga (o'qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish) bo'linib, ularning har biri bo'yicha alohida tushuncha va ko'nikmalar berilmogda. Ta'lim texnologiyalari, bu ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishdir. Shuningdek, ta'lim jarayoniga zamonaviy innovatsion texnologiyalarini olib kirish orqali ta'lim sifati va samaradorligini oshirishni nazarda tutadi. Xususan, chet tilini o'rganishda bunday axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishning bir qancha afzalliklari mavjuddir. Til o'rganish va o'qitishda zamonaviy texnologiyalarning roli beqiyosdir. Texnologik vositalardan foydalanish chet tili o'rganishning har bir aspect (o'qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish)ida qo'l keladi. Masalan,

tinglab tushunish uchun, albatta, kompyuter, player, CD diskarsiz bu jarayonni amalga oshirish mumkin emas. Tinglab tushunish til o'rganishning eng muhim qismlaridan biridir. Bunda o'quvchi bir paytning o'zida so'zlovchining talaffuzi, grammatik qoidalarga rioya qilganligi, so'z boyligi va uning ma'nolariga e'tibor berishi talab qilinadi. Ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishda o'quvchilar ham axborot — kommunikatsion texnologiyalarni yaxshi bilishi va ulardan foydalana olishi muhim omil hisoblanadi. "Oliy ta'limga qamrov darajasini 2026- yilga qadar 10ta salohiyatli oliy ta'lim muassasasini QS va THE xalqaro reytinglariga kirishga maqsadli tayyorlash", "El-yurt umidi" jamg'armasi orqali erkin va ijodiy fikrlaydigan yoshlarni nufuzli xorijiy oliygozlarga o'qishga yuborish ko'lamini 2 baravarga oshirish, bunda yoshlarning 50foizini texnik, aniq fanlar va IT sohalarida o'qitish"ga davlat siyosati darajasida alohida e'tibor berilmoqda<sup>1</sup>.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng, chet tillarini o'rgatishga qiziqish oshdi va yoshlar uchun ko'plab imkoniyatlar yaratib berildi. Bugun jahon hamjamiyati o'ziga munosib o'rin egallashga intilayotgan mamlakatlarimiz uchun, chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda o'z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yo'qdir. Ushbu fikrlarning mantiqiy davomi sifatida 2012-yil 10-dekabrda qabul qilingan "Chet tillarini o'rgatish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Qarori chet tillarini o'rganish imkoniyatlarini kengaytirdi<sup>2</sup>. Shuningdek, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son qaroriga muvofiq, xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlarni samarali amalga oshirish maqsadida qaror qabul qilindi. Ushbu qarorga muvofiq 2022/2023- o'quv yilidan boshlab, davlat ta'lim muassasalarining xorijiy tillar o'qituvchilari lavozimlariga ishga yangi qabul qilinayotgan talabgor kamida B2 darajadagi milliy yoki unga tenglashtirilgan mos darajadagi xalqaro sertifikatga ega bo'lishi lozim; 2022/2023 -o'quv yiliga qadar davlat oliy ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan barcha xorijiy tillar o'qituvchilari kamida S1 darajadagi milliy yoki unga tenglashtirilgan mos darajadagi xalqaro sertifikatga ega bo'lishi lozim; 2024/2025- o'quv yiliga qadar davlat oliy ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan kasbiy fanlar (xorijiy tildan tashqari) o'qituvchilarining 50 foizi kamida B2 darajadagi milliy yoki unga tenglashtirilgan mos darajadagi xalqaro sertifikatga ega bo'lishi lozim; 2024/2025- o'quv yiliga qadar umumiy o'rta, o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan barcha xorijiy tillar o'qituvchilari kamida B2 darajadagi milliy yoki unga tenglashtirilgan mos darajadagi xalqaro sertifikatga ega bo'lishi lozim.

Jahon ta'lim tizimidagi tub islohotlar talabalarning chet tillarni mukammal o'rganishlari, barcha sohalarida chet tilini bilgan holda o'zlarini namoyon eta olishlari uchun zarur shart- sharoit yaratib berish, ularning xorijiy tilda og'zaki va

<sup>1</sup> 2022–2026 Yillarga moljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi

<sup>2</sup> Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora- tadbirlari to'g'risida Toshkent sh. 2012yil10-dsekabr, PQ-18755son

yoza nutqlarini rivojlantirish muammolarini ilgari surmoqda. Ta'lim oluvchilarning chet tilida fikr yuritish, erkin nutqni amalga oshira olish qobiliyatlarini rivojlantirish, intellektual faoliyatini shakllantirish, ularning tayyorgarligini baholash masalalari bilan Yunesko, Yunisef, Yevropa Universitetlari Assotsiyatsiyasi, Oliy Ta'lim Sifatini Ta'minlash Yevropa Tarmog'i kabi tashkilotlar shug'ullanmoqda. Bu masalaning umumiy tendensiyalarda rivojlanishi zamonaviylik va yosh avlodda chet tiliga oid malakalarning shakllanishida katta ahamiyat kasb etib, zamonaviy tarbiya muammolari bilan bog'liq holda talabalarning ijodiy qobiliyatlarini oshirishga xizmat qilmoqda

Ma'lumki, respublikamiz oliy ta'lim tizimida bo'lajak kadrlarni ishlab chiqarish va ilmiy maqsadlar uchun zarur bo'lgan axborotni topish jarayonida mutaxassislik bo'yicha original adabiyotni o'qish, xorijiy tildagi og'zaki muloqotda ishtirok etish ko'nikmasini shakllantirish maqsadida chet tili darslari o'tilmoqda. Har bir mustaqil O'zbekiston Respublikasi fuqarosi o'z kasbiga oid chet tilidagi adabiyotlarning asl nusxasini o'qiy olishi, o'qilgan matnni tushunishi va uni o'z kasbida qo'llay olishi lozim. Bundan tashqari, u berilgan mavzuda suhbatdoshi bilan chet tilida erkin fikr almasha olishi kerak. Zero, chet tillarini o'rganish bugungi globallashtirilgan davr talabidir.

Boshlang'ich sinflarda, ayniqsa, birinchi sinfda o'quvchilarga chet tillarni o'rgatishda o'quvchining yoshi, fiziologik, psixologik xususiyatlarini hisobga olish kerak. Qarorda ta'kidlanganidek, birinchi sinflarda o'yin tarzidagi darslar va og'zaki nutq darslari shaklida chet tillarini o'rgatishni amalga oshirish, haqiqatan, kichik yoshdagi o'quvchilarga mosligidir. Ta'limda o'yin texnologiyalaridan foydalanish, eng samarali vositalardan biridir. O'yin davomida ularning tafakkuri, dunyoqarashi, fikrlashi kengayib boradi. Olimlar ta'limga o'yin orqali yondashuv ta'lim jarayonida osonlashtiradi, deb hisoblagan. Nafaqat osonlashtiradi, balki bu fanga qiziqishini kuchaytirib, bolani chuqur bilim olishiga undaydi. O'yin tarzidagi darslar bolalarning og'zaki nutqini rivojlanishiga yordam beradi. Birinchi sinf o'quvchilari rasmi yoki videoli turli ko'rishlarni juda yaxshi ko'rishadi. Turli xil rangli rasmlar orqali, ularning nutqlarini o'stirishda o'yinlardan muntazam foydalanib turish lozim. Masalan, Bu nima?, Bu kim?, Kim ko'p so'z biladi?" kabi o'yinlardan foydalanish mumkin. O'yin jarayonida bolalarning so'zlarni eslab qolishi, to'g'ri talaffuz etishiga qarab rag'batlantirib borish zarur. Bolalarning so'z boyliklarini ortib borishiga qarab boshqa turdagi o'yinlar, turli xil musobaqalarni tashkil etish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalarga dastlab "Meva nomlari", "Kasblar", "Uy jihozlari" kabi mavzulardagi mashqlarni o'yinlar yordamida bajartirish mumkin. So'ngra ular kompyuterdagi rang-barang tasvirlarga uyg'un holatda ko'rsatilsa, o'quvchilarning nutqi rivojlanib, atrof-muhitga munosabat doirasi kengayadi. Yangi mavzuni namoyish etish bosqichida ekranda so'zlar va uni aks ettiruvchi rasmlar paydo bo'ladi. O'quvchilar so'zlarni tinglab, ularni talaffuz etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Mavzuni kompyuter yordamida taqdim etishda ta'limni individuallashtirish printsipiga e'tibor berish lozim. Ayrim

o'quvchilar so'zning grafik, ayrimlari esa tovushli obrazni qabul qilishda qiyinchilikka uchraydilar. Kompyuter u yoki bu qiyinchilikni mashqlar vositasida bartaraf etib, o'quvchining ingliz tilidan o'zlashtirishga qiynalayotgan jihatlarini topishga va ularni bartaraf etishga yordam beradi.

Ikkinchi sinfdan boshlab grammatikani o'zlashtirishga qaratilgan boshqa ta'limiy o'yinlarni ham tashkil etish mumkin. Masalan, "Kim savodxon?", Kim zukko?, "Men kimman?", "Zanjir", "Rolli o'yin", "So'z o'rnini top kabi qiziqarli o'yinlar shular jumlasidandir. "Kim zukko?" o'yini imlo savodxonlikni oshirishda yaxshi natija beradi. Bunda karton qog'ozga 5-6 ta so'z yozilgan bo'lib, so'zlar to'g'ri va noto'g'ri yozilgan bo'ladi. O'quvchilardan noto'g'ri yozilgan so'zni topib, to'g'ri yozib berish talab qilinadi. Qaysi o'quvchi noto'g'ri yozilgan so'zlarni to'g'ri va birinchi bo'lib yozib berishga qarab o'yin g'olibi aniqlanadi.

Biz bilamizki, hozirgi ta'lim jaroyonida o'quvchi sub'ekt bo'lishi lozim. Bunda ko'proq interfaol metodlarga e'tiborni qaratish ta'lim samaradorligini oshiradi. Ingliz tili darslariga qo'yilgan eng muhim talablardan biri mustaqil fikrlashga o'rgatishdir. Bugungi kunda ingliz tili o'qituvchilari Amerika Qo'shma Shtatlari, Angliya pedagoglari tajribasiga tayangan holda, quyidagi innovatsion metodlardan foydalanib kelmoqda:

"Quvnoq topishmoqlar" (Merry riddles) o'quvchilarga topishmoqlar o'rgatish. Ingliz tilini o'rgatishda muhim ahamiyatga ega, ular o'zlariga notanish bo'lgan so'zlarni o'rganadilar va o'ylab topishmoq javobini topadilar. "Tezkor javob" (Quick answers) o'tilgan dars samaradorligini oshirishda yordam beradi. "Chigil yozdi" (Warm-up exercises) o'quvchilarni darsga qiziqtirish uchun sinfda har xil o'yinlardan foydalanish. "Pantomima" (Pantomime) bu usul juda qiyin mavzular tushuntirilishi kerak bo'lgan darsda yoki yozma mashqlar bajarilib, o'quvchilar charchagan paytda foydalanilsa bo'ladi. "Hikoya zanjiri" (A chain story) usuli o'quvchilarning og'zaki nutqini oshirishda va xotirani mustahkamlashda yordam beradi. "Rolli o'yinlar" (Acting characters) bu usul darsning barcha tiplarida qo'llanilishi mumkin "Rasmlar so'zlaganda" (When pictures speak) usuli ancha qulay bo'lib, ingliz tilini o'rgatishda, o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirishda yordam beradi, buning uchun mavzuga oid rasmlardan foydalanish lozim. "Kviz kartochkalari" (Quiz cards) o'quvchilarning soniga qarab kartochkalar tarqatiladi va hamma o'quvchilar bir vaqtda darsda ishtirok etish imkonini beradi bu esa vaqtni tejaydi.

"So'z o'rnini top" o'yinida so'zlarning o'rnini almashtirib qo'yiladi hamda so'zlarni o'z o'rniga to'g'ri qo'yish orqali gap hosil qilinadi. "To'plam" o'yini ma'lum bir mavzu asosida o'quvchilarning olgan bilimlarini mustahkamlash maqsadida o'tkaziladi. O'yin qatorlar musobaqasi yoki kichik guruhlarda ishlash shaklida tashkil etiladi. Masalan, belgini bildirgan so'zlarni toping deb, guruhlarga topshiriq beriladi. Berilgan vaqt ichida qaysi guruh ko'p topa olsa g'olib bo'ladi. Multfilmlar. Bolalar chet tilini o'rganish mobaynida multfilmdagi gaplarni tushunmasa-da, multfilmdagi qahramonlarning harakatlari orqali ular ishlatayotgan so'zlarni tushunishga harakat qiladi. Bu esa bolalar uchun til o'rganishda qiziq va

samarali yo'l hisoblanadi. Bolalar uchun ingliz tili qo'shiqlaridan tortib she'r va hikoyalar, videoroliklar orqali o'rgatib kelinmoqda.

**“Rasmi” o'yin.** O'quvchilar Present Continuous tarkibini yaxshiroq o'zlashtirishlari uchun rasmi o'yinni qo'llash mumkin. O'quvchilarga hali ko'rmagan rasmlaridagi personaj nima qilayotganini topish taklif etiladi. Masalan, P1: Is the girl sitting at the table? P 2 : No, she is not.

P1: Is the girl standing? P 2:: Yes, she is

Rasmda ifodalangan harakatni to'g'ri topgan o'quvchi g'olib xisoblanadi. U boshlovchi bo'lib boshqa rasmni oladi.

**“Rasmdagi gaplar”o'yini.** Bu o'yin grammatik formalarni mashq qildirish uchun yaxshi ko'rgazmali vosita hisoblanadi. Kartalarda odamni qandaydir harakatlarini ifodalovchi bir necha rasmlar bor, masalan: konkida uchayotgan, shaxmat o'ynayotgan, kitob o'qiyotgan rasmlar bor. O'qituvchi rasmi kartalarni ko'rsatadi (bola konkida uchayapti) va so'raydi: What is he doing? O'quvchilar o'zlarida xuddi shunday rasmni topadilar va javob beradilar: He is skating.

Chet tilini zamonaviy texnologiyalardan foydalanib o'rgatish va o'rganish eng samador usullardan biridir. Bu jarayonda, jumladan: – kompyuterlardan foydalanganda o'quvchi chet tilidagi video roliklarni, namoyishlarni, dialoglarni kino yoki multfilmlarni ham ko'rishi ham eshitishi mumkin

– chet tilidagi radio eshittirishlar va televideniedagi dasturlarni eshitish va tomosha qilish mumkin; – ancha an'anaviy usul hisoblanadigan magnitafon va cassetalardan foydalanish

Psixologlarning ta'kidlashlaricha, o'yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o'zini namoyon qilish, hayotda barqaror o'rnini topish, o'zini o'zi boshqarish, o'z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi. Har qanday o'yin zamirida umumiy qabul qilingan ta'lim prinsiplari, taktikasi yotishi kerak. O'quv o'yinlariga o'quv predmetlari asos qilib olinishi kerak. O'yinlar jarayonida o'quvchi oddiy darsga qaraganda bu mashg'ulotga qiziqibroq yondashadi va bemalol faoliyat ko'rsatadi. Ta'kidlash lozimki, o'yin eng avallo, o'qitishning bir usulidir. Tinglovchilar o'yinli darslarga qiziqib qatnashadilar, g'alaba qozonishga intiladilar, o'qituvchi ular orqali o'quvchiga ta'lim-tarbiya ham beradi. Tinglovchil inglizcha o'yin o'ynab, gapira olarkanman, tinglab tushuna olarkanman, yoza olarkanman, deb ishonadi, qiziqadi . Biz bilamizki, hozirgi ta'lim jarayonida tinglovchil sub'ekt bo'lishi lozim. Bunda ko'proq interfaol metodlarga e'tiborni qaratish ta'lim samaradorligini oshiradi. Ingliz tili darslariga qo'yilgan eng muhim talablardan biri talabalarni mustaqil fikrlashga o'rgatishdir. Bugungi kunda ingliz tili o'qituvchilari Amerika Qo'shma Statlari, Angliya pedagoglari tajribasiga tayangan holda quyidagi innovatsion metodlardan foydalanib kelishmoqda:

– “Muammoli vaziyat yechimi” (Creative Problem Solving) bu usulni qo'llash uchun hikoyaning boshlanishi o'qib beriladi qanday yakun topishi o'quvchilar, talabalar hukmiga havola qilinadi;

– “Quvnoq topishmoqlar” (Merry Riddles) t5inglovchilarga topishmoqlar o’rgatish Ingliz tilini o’rgatishda muhim ahamiyatga ega, ular o’zlariga notanish bo’lgan so’zlarni o’rganadilar va o’ylab topishmoq javobini topadilar; – “Tezkor javob” (Quick answers) o’tilgan dars samaradorligini oshirishda yordam beradi; – “Chigil yozdi” (“Warm-up exercises”) tinglovchilarni darsga qiziqtirish uchun sinfda har xil o’yinlardan foydalanish ; – “Pantomima” (pantomime) bu usul juda qiyin mavzular tushuntirilishi kerak bo’lgan darsda yoki yozma mashqlar bajarilib, talabalar charchagan paytda foydalanilsa bo’ladi;

– “Hikoya zanjiri” (a chain story) usuli tinglovchilarning og’zaki nutqini o’stirishda yordam beradi; – “Rolli o’yinlar” (Acting characters) bu usul darsning barcha tiplarida qo’llanilishi mumkin. Hunarga o’rgatish uchun “Interpreter”, “Translator”, “Writer”, “Poet” kabi kasbdagi kishilar darsda ishtirok etishib tinglovchilar bilan suhbatlashishlari mumkin;

№ 1 sonli rasm

**My lovely family**

Aeo! My name is Aeo. I am eight years old and I am from the USA. I'm going to introduce you to my lovely family. It is quite big and we are very happy.

My mother's name is Laura and my father's is Peter. My mother has got blond hair and she is very tender. My father is tall and slim and he is a funny person.

My parents have got three children. There's my brother Tim, my baby brother David and me. Tim is a smart boy who loves playing and being with me all the time. He is only three years old so he attends the kindergarten. My younger brother, David, is a seven-month baby but he is full of personality. He likes being at my father's lap and he never disposed of Eddy, his bunny.

My father has got a sister. Her name is Olivia and she is my aunt. My mother has got two brothers. Their names are Richard and William and they are my uncles.

I have also got my grandparents and my cousins Jacob, Kevin and Olive.

We have got a pet called Pongo, he is my favourite dog!

I love my family and my pet.

**Answer the following questions about the text.**

1. How old is Aeo?
2. Is she British?
3. How many brothers has she got?
4. What's her mother's name?
5. What's her father's name?
6. How old is Tim?
7. Who is Eddy?
8. How many cousins has Aeo got?
9. What are their names?

**Complete the table with family relationships.**

Male	Female
father	mother
uncle	grandmother
son	cousin

**Match the opposites.**

old	•	small
big	•	short
happy	•	serious
tall	•	fat
slim	•	young
funny	•	serious
love	•	unhappy

*Ushbu rasmda ya’ni oila a’zolari haqida gapirish uchun kerakli lug’at boyligi hamda namuna berilgan. Shuningdek matn asosida savollar berilgan bo’lib ushbu savollar asosida talaba o’z oilasi haqida gapirishi mumkin.*

– “Allomalar yig’ini” (Thinkers meeting) U.Shekspir, A.Navoiy, R.Burns kabi shoirlar va yozuvchilarni “taklif qilish” mumkin. Bunday paytda ular aytib ketgan hikmatli so’zlardan darsda foydalanish yoshlarni komil inson bo’lib tarbiyalanishiga yordam beradi;

– “Rasmlar so’zlaganda” (When pictures speak) usuli ancha qulay bo’lib, ingliz tilini o’rgatishda, talaba, o’quvchilarning og’zaki nutqini rivojlantirishda yordam beradi, buning uchun mavzuga oid rasmlardan foydalanish lozim;

– Kviz kartochkalari (quiz cards) o’quvchilarning soniga qarab kartochkalar tarqatiladi va hamma talabalar bir vaqtda darsda ishtirok etish imkonini beradi bu esa vaqtni tejaydi .

Xulosa qilib aytganda, darslarda innovatsion usullarni qo’llash natijasida bolalarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi, nutqi ravonlashadi, tez va to’g’ri javob berish malakasi shakllanadi. Bunday usullar talabada bilimga ishtiyoq uyg’otadi. Tinglovchi darslarga puxta hozirlik ko’rishga intiladi. Bu esa tinglovchilarni ta’lim jarayonining faol sub’yektlariga aylantiradi. Ta’lim tizimi o’z oldiga erkin fikrlovchi, barkamol, yetuk shaxsni tarbiyalashni vazifa qilib qo’yar ekan, kelgusida biz bo’lajak o’qituvchilar innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish yo’llarini yanada mukammalroq ishlab chiqshimiz bilan o’z xissamizni qo’shishimiz mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrda «CHet tillarini o’rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida»gi PQ-1875-sonli qarori.
2. Iriskulov A.T va boshqalar Kids‘ English pupil’s book 2sinf –Toshkent —O’zbekiston;2014
3. Passov Ye.I. Kommunikativniy metod obucheniya inoyazichnomu govoreniyu. M.: Prosveshchenie,1991
4. Xoshimov O‘. Yoqubov I. Ingliz tili o‘qitish metodikasi. T., - 2003
5. Vyatyutnev M.N. Obuchenie inostrannomu yaziku v nachalnoy shkole. /inostranniy yazik v shkole, 1990
6. Барышников, Н. В. Методика обучения второму иностранному языку в школе [Текст] / Н. В. Барышников. - М.: Просвещение, 2003. - 159 с.
7. Umbetova, M. A., & Kubeysinova, U. T. (2022). Yosh basketbolchilarda kuch sifatini o ‘yin mashqlari yordamida rivojlantirish. *International conference dedicated to the role and importance of innovative education in the 21st century*, 1(10), 111-116.
8. Кубейсинова, У. Т. (2021). О влиянии баскетбола на организм человека. *Инновационные направления массового развития физической культуры и спорта в современных условиях*, 1(1), 51-55.
9. Кубейсинова, У. Т. (2021). Специализированное развитие прыгучести и прыжковой выносливости баскетболистов, как важное условие обеспечения результативности бросков, выполняемых в прыжке. *Fan-Sportga*, (1), 35-37.
10. Kadirova, O. K. (2022). Boshlang‘ich ta’lim rivojlantirish muammolari va istiqbollari. *Zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish*, 403(1), 18-19.

11. Kadirova, O. K. (2022). Linguopoetics is an Important Research Field of Linguistics. *International Scientific Journal Theoretical & Applied Science*, 10(12), 756-759.
12. Kadyrova, Z. Z.; Kadyrova, O. Kh. (2022). Lithosonyms Used in the Works of Alisher Navoi. *NeuroQuantology*, 12(20), 1907-1913.
13. Кадирова, О. Х., Кадирова, З. З. (2022). Ўзбек терминологияси. *Журнал филологических исследований*, 1(2), 156-160.